

**RANGTASVIR SAN'ATI VA RANGLAR UYG'UNLIGINING ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI O'RNI:  
TASVIRIY SAN'AT, TIBBIYOT, FIZIKA SOHALARINING RANGSHUNOSLIK BILAN ALOQADORLIGI**

Axmadjonova Jasmina Jamshid qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Professional ta'lim

fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1-kurs talabasi

jasminakhmadjonova@gmail.com

**Annotatsiya:**

Mazkur maqolada muallif tasviriy san'atdagi rangtasvirning ahamiyati benihoya katta ekanligi, uning mazmuni, bir qator olimlar ranglarning fizikaviy xossalari mohiyatini ilmiy asoslanganligi, shuningdek rangtasvir turlari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, rang, rangtasvir, spektr ranglar, rangshunoslik, xromatik va axromatik ranglar, iliq va sovuq ranglar,

**Аннотация:**

в данной статье автор говорит о значении живописи в изобразительном искусстве, о ее содержании, о том, что ряд ученых научно обосновали сущность физических свойств цвета, а также о видах живописи.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, цвет, живопись, спектральные цвета, цветоведение, хроматические и ахроматические цвета, теплые и холодные цвета.

Rangtasvirning aniq haqiqiy usuli – bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan buyoq surtmadir<sup>1</sup>.

XVII asrdan boshlab, bir qator olimlar tomonidan ranglarning hayotimizda qanchalik ahamiyati borligini, ayniqsa, ranglarning fizikaviy xossalari mavjud ekanligini ilmiy ravishda o'rganishdagi dastlabki qadamlarni qo'yishdi. Xususan, M.Lomonosov, G.Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. Isak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rangli ekanligini isbotlagan<sup>2</sup>. I.Nyuton 1666-yilda Kembrijda oq rangni prizma orqali parchalash bo'yicha tajriba o'tkazdi - bu bizni rangning haqiqiy tabiati bilan tanishtirdi. Deraza qopqog'idagi kichik dumaloq teshikdan qorong'u xonaga yorug'lik nuri kirib keldi va Nyuton uning yo'llariga shisha uchburchak prizma qo'ydi. Yorug'lik nurlari prizmada sindi. Ekrandan prizma orqasida ko'p rangli chiziq paydo bo'ldi, uni Nyuton "spektr" deb atagan (yunoncha "spektr" - qarayman). Nyuton davridan boshlab, spektrdagi yettita asosiy rangni ajratib ko'rsatish odat tusiga kirgan. Ular: qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha. Nyutonning tasvirlangan kuzatishi shuni ko'rsatadiki, turli rangdagi nurlar prizma tomonidan turlicha sinadi. Nyuton bu muhim xulosani ko'plab tajribalar orqali tasdiqladi. Ulardan eng muhimi spektrdan olingan turli rangdagi nurlarning sindirish ko'rsatkichini aniqlashdan iborat edi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> П.П. Кончаловский. Мысли о художественном творчестве. М., 1964, 27.

<sup>2</sup> Abdirasilov S., Tolipov N. Dastgohli rangtasvir. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma / Abdirasilov S., Tolipov N. / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, -T.: <<Iqtisodiyot –Moliya>> 2008,- 7-bet.

<sup>3</sup> <https://studfile.net/preview/8832435/>

Ranglarning hayotimizda qay darajada o'zni borligi, hatto, ranglarning tibbiyotda ham o'z ifodasini topgan. Tibbiyotda daltonizm kasalligi mavjud bo'lib, bu kasallik ba'zi odamlarda rangni ajrata olmasligi bilan uchraydi. Bu kasallikda rangli rasmlar bilan oq-qora rasmlar va svetofor chiroqlari bir xil ko'rinadi. Hayotda orttirilgan rang ajrata olmaslik ko'z va markaziy nerv sistemasining ba'zi kasalliklari (o'sma, shikastlar, glaukoma, ko'rish nervi atrofiyasi)da ro'y berib, uchta asosiy rangni sezishning pasayishi yoki butunlay yo'qolishi sabab bo'ladi. Hayotda orttirilgan rang ajrata olmaslikni o'z vaqtida davolab, ranglarni ajratishni tiklash mumkin<sup>4</sup>.

Zero, fransuz rassomi Paul Gauguin o'z yaratgan asarlarida Yunoniston, qadimgi Sharq mamlakatlari san'ati va ularning hayot tarzidagi ibtidoiy madaniyatini inson farqlay oladigan aniq yorqin va issiq ranglarda beradi. Buning yaqqol misolida, musavvirning hozirgacha saqlanib kelgan "Meva tutgan ayol" nomli asarini keltirib o'tishim lozim. Ushbu asarida ayolning orqa fonida tabiat manzarasi, aholi yashab kelayotgan kulbalar va ularning hayot tarzi, ayollarning madaniyati, kiyinish uslubini qisqacha tasvirlagan. Shubhasiz, rasmda ayol chakkasida taqqan gullari uning ayollik nafosatidan darak beradi. Tasviriy san'atda, ayniqsa, rangtasvirda rangning ahamiyati benihoya katta. U asarning mazmuni va g'oyasining to'la ochilishida, uni tomoshabinga emotsional-hissiy ta'sirini kuchaytirib berishda, shuningdek, kompozitsiyadagi muvozanatni saqlashda xizmat qiladi.

Rangtasvir deb rangli ashyo – materiallarda (bo'yoqlar, akvarel, moybo'yoq, tempera, guash, yelim bo'yoq, rangli tosh, shisha va h.k.) ishlangan rassom asariga aytiladi. Rangtasvir asarlari o'zining ishlanishi, o'zni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, uslubi, va ko'rinishiga qarab dekorativ (bezak), monumental, dastgoh rangtasvir, ikona, miniatyura, diorama, panorama turlariga ajratiladi<sup>5</sup>.

Rangshunoslikda xromatik va axromatik turlari ham bo'ladi. Xromatik so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, rangli ma'nosini anglatadi, axromatik so'zi rangsiz degan tushunchani bildiradi.

Axromatik ranglar qatoriga oq, qora, kulrang kirsas, bulardan boshqa hamma ranglar xromatik ranglar hisoblanadi.

Biror xromatik rangga ozroq kulrang qo'shsak, uning sho'xchanligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushunish kerak. Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ldiki, xromatik ranglar bir-biridan uchta asosiy xossasi – rang toni (rangning o'zi), rangning och-to'qligi va to'yinganligi bilan farq qilar ekan<sup>6</sup>.

Rangshunoslik fanida iliq va sovuq rang tushunchalari ham bor. Mutaxassislar iliq ranglar qatoriga sariq, qizil, zarg'aldoq, sabza, pushti, sadaf, malla, qirmizi, lolaro'y, gulgun, zafaron, noranjvash, somoniy, bag'rikaram kabilarni kiritishadi. Ular o'z xususiyatlariga ko'ra, bir ko'rishda kishilarda iliqlik kayfiyatini hosil qiladi<sup>7</sup>.

Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq va sovuq ranglarning o'zaro hamohangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko'pchiligi avvalombor yetuk qalamtasvir

<sup>4</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

<sup>5</sup> Abdullayev N. Jahon san'at tarixi: kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma / N.Abdullayev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. –T.: <<DAVR PRESS>>, 2007. – 288, 5 bet

<sup>6</sup> Rangshunoslik: Bakalavriatning 5240900 kasbiy (511200 – Amaliy san'at) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik/ S.S. Bulatov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika un-ti. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 29-bet.

<sup>7</sup> Nurmanov E. Rangtasvir. O'quv qo'llanma. /O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti. – T.: Info Capital Group, 2018. 15-16-17-betlar.

ustalaridir. Bular qatoriga K.Bryullov, I.Shishkin, V.Makovskiy, V. Polenov, I.Repin, M.Brubel, V.Serov, K. Korovin, A. Abdullayev, U. Tansiqboyev, Z. Inogomov, M. Nabiyev, R. Axmedov, A. Ikromjonov, I. Xaydarov kabilar kiradi. Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlari muhim o‘rin egallaydi<sup>8</sup>. Masalan, R.Axmedovning “Qish” (rasm1.)<sup>9</sup> asari, birinchi navbatda, qishloqlardagi qish kunini sovuq ranglar ishtirokida yorug‘lik va soya bilan o‘ynash orqali o‘ziga xos tasvirlaganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Rassom ushbu asaridagi qishki bulutlarni kenglik va yengillik hissi bilan ifoda etgan. Ayniqsa, bu asar qishki manzaraning go‘zalligini hamda faslning o‘zgacha sovuq havosi borligini va qishloqlardagi turmush tarzini ko‘rsatdi. Shuningdek,

mo‘yqalam ustasi R.Axmedovning haqiqiy san‘at ixlosmandlarini o‘ziga jalb qila oladigan rasmlari ko‘p, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. U asarlarida mamlakatimiz tabiatini benihoya go‘zalligini nafis va yorqin bo‘yoqlar bilan tasvirlagan. Rassomning asarlari Moskvada joylashgan Tretyakov galeriyasida hamda O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi ko‘rgazma va panoramalar direksiyasida ko‘rishimiz mumkin.

San‘atning badiiy yo‘nalishi, ya‘ni post-impresionizm<sup>10</sup> san‘ati bilan tepada esgan olgan P.Sezan, V.Gog, P.Gogen, A.Tuluzlotrek va boshqalarni o‘z ijodida izchil namoyondalar ko‘rsatgan. Bu uslub rassomlari davrga hamohang badiiy tasvir vositalari ustida izlandi. Impresionizmning oniy taassurotlari o‘rniga chuqur his-tuyg‘uga boy jo‘shqin shakllarni yaratishga intilish kuchaydi. Bu izlanish va amaliy faoliyatlar XX asr tasviriy san‘atining g‘oyaviy plastik rivojlanishi tamoyillarini belgilab bergan muhim tarixiy bosqich vazifasini o‘tadi<sup>11</sup>.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki, yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o‘qishga kelganida, rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: “Rasm chizish!”. Rassom bo‘lish uchun yana qo‘shimcha nimalarni maslahat berar edingiz degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: “Rasm chizish va yana rasm chizish!” – rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan<sup>12</sup>.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Konchalovskiy P. Мысли о художественном творчестве. М., 1964, 27.
2. Abdirasilov S., Tolipov N. Dastgohli rangtasvir. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma / Abdirasilov S., Tolipov N. / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi,-T.: <<Iqtisodiyot – Moliya>> 2008,- 7-bet.
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. Abdullayev N. Jahon san‘at tarixi: kasb-hunar kollejlari uchun qo‘llanma / N.Abdullayev; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi. –T.: <<DAVR PRESS>>, 2007. – 288, 5 bet
5. Rangtasvir: O‘quv qo‘llanma/ Nurmanov E. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute. – T.: Info Capital Group, 2018. 15-16-17-betlar.

<sup>8</sup> A.Akbarxo‘jayev. Rangtasvir [matn] / A.Akbarxo‘jayev. – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2019. – 18-6.

<sup>9</sup> [рахим ахмедов зима: 1 тыс изображений найдено в Яндекс Картинках \(yandex.ru\)](https://yandex.ru)

<sup>10</sup> Post-impresionizm ( [frantsuz](https://frantsuz.postimpressionisme) postimpressionisme , [lotincha](https://lotincha.post) post - "keyin" va " [impressionizm](https://impressionizm) " dan ) - badiiy yo‘nalish, shartli jamoaviy Evropa rasmidagi asosiy yo‘nalishlarning heterojen to‘plamining belgilanishi ; 1880-yillarning ikkinchi yarmidan 20-asr boshlarigacha bo‘lgan fransuz san‘ati rivojlanishining asosiy yo‘nalishini belgilash uchun san‘at tarixida qabul qilingan atama. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

<sup>11</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

<sup>12</sup> Мастера искусства об искусстве. М., 1996, Т.2, 257-бет.

6. Rangshunoslik: Bakalavriatning 5240900 kasbiy (511200 – Amaliy san’at) ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik/ S.S. Bulatov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika un-ti. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 29-bet.
7. Akbarxo‘jayev A. Rangtasvir [matn] / Akbarxo‘jayev A. – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2019. – 18-b.
8. Mastera isskustva ob isskustve. M., 1996, T.2, 257-bet.
9. Abdullayev N. Jahon san’at tarixi: kasb-hunar kollejlari uchun qo‘llanma / Abdullayev N; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. –T.: <<DAVR PRESS>>, 2007. – 288, 5 bet
10. Tulanova, D. J. (2022). FORMIROVANIE I SPETSIFIKA RAZVITIYa PEYZAJNOY JIVOPISI UZBEKISTANA. *European Journal of Arts*, (1), 8-15.
11. Rangtasvir. – [Matn]: o‘quv qo‘llanma/ E.X. Xaitov, Sh.R. Jumaniyozov. – Toshkent: Info Capital Group, 2018. – 112 b.